

TURIZM SOHASINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING XORIJ TAJRIBASI

Yo'ldosheva Latofat Tolibovna

“Ipak yo‘li” turizm va ma’daniy meros xalqaro
universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ma’lumki, turli xil davlatlar turlicha turizm siyosatini yuritishni ma’qul ko‘rishadi. Turizm industriyasining davlat tomonidan boshqarishning mavjud to‘rt modelidan har bir davlat o‘z ichki davlat siyosati va iqtisodiy holatidan kelib chiqib birini tanlaydi va turizm siyosatini mazkur model tamoyillari bo‘yicha olib boradi. Ushbu maqolada turizm sohasining davlat tomonidan boshqarishning Buyuk Britaniya, Yaponiya, Xitoy, Rossiya, Yevropa Ittifoqi davlatlari hamda Qozog‘iston tajribasi batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy turistik faoliyat, bozor muvaffaqiyatsizligi, turizmning mavsumiylik xususiyati, strategik rejalashtirish va inqirozni boshqarish funksiyalari

Foreign experience of state regulation of the tourism sector

Abstract. It is known that different countries prefer different tourism policies. A specific country chooses one of the four existing models of state management of the tourism industry based on its internal state policy and economic situation, and conducts tourism policy according to the principles of this model. This article describes the experience of state management of the tourism industry in Great Britain, Japan, China, Russia, EU countries and Kazakhstan in details.

Key words: Social tourism activity, market failure, seasonal nature of tourism, strategic planning and crisis management functions

Kirish

Davlat hukumati turistik mahsulotni ishlab chiqish va iste'molga havola etishning barcha jabhalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o‘z navbatida hukumat vakillarining xususiy sektorlar bilan hamjihatlikda ishlashini taqazo etadi. Atrof-muhitni asragan holda turizm sohasining rivojlanishiga erishish uchun davlatning

to'g'ri olib borilayotgan turizm siyosati zarur. Davlat hukumati turizm sektori rivoji uchun mas'ul subyekt hisoblanadi. Elliotning ilmiy nazariyasiga ko'ra, davlatlarning ishtirokisiz xalqaro turizmni takomillashtirish imkonsiz, chunki davlat hokimiyati siyosiy barqarorlikni, xavfsizlikni, turizm sohasi uchun kerak bo'lgan huquqiy va moliyaviy shart-sharoitni yaratadi va muhim xizmat turlarini tashkillashtirish uchun umumiy infrastrukturani vujudga keltiradi va rivojlantiradi. Buning ustiga, bir davlat hukumati boshqa davlatlar bilan ko'pgina masalalar yuzasidan, misol uchun, viza masalasi, mamlakat hududiga kiritish shartlari va xalqaro transit yo'nalishlari bo'yicha o'zaro muzokaralar olib borib, kelishuv va bitimlar imzolashadi.

Adabiyotlar tahlili

Dunyo mamlakatlarida turizm sektori ekologiyaga zararli faoliyat turi bo'lgani sababli davlat tomonidan doimiy nazorat qilinishi kerak bo'lgan jabha hisoblanadi. OECD ning ma'lumotlariga ko'ra, davlat makroiqtisodiyotning barqarorligi, do'stona biznes muhiti va innovatsion turizm siyosatini ta'minlash orqali turizm sektorini rivojlantiradi. Biroq, turizm industriyasining iqtisodiy manfaatlari rivojlanishi past mamlakatlarda mahalliy aholining moddiy holati va ishlik darajasini oshirish uchun har doim ham sarflanmaydi. Tashqi kompaniyalarning nazorati esa mahalliy aholi uchun ekologik muammolarni kuchaytirib, iqtisodiy foydaning xorijiy kompaniya tomonidan og'dirilishi turizmning iqtisodiy manfaatlarini mahalliy hokimiyat uchun sezilarli darajada kamaytiradi.

Turizm sohasidagi yetakchi olimlardan biri-Jeffries turli davlatlarning turizm sohasi rivojiga ta'sir ko'rsatadigan keng miqyosdagi siyosiy maqsadlarini sanab o'tadi:

- Ispaniyada 1960-yillarda Franko rejimi turizm sohasidan davlatning siyosiy maqbulligini qonuniylashtirish hamda iqtisodiy salohiyatini tan olish uchun foydalandi;
- 1930-yillardan buyon, Fransiya hukumati Sobiq SSR ning kurortlarda ishchilar hayoti sifatini yaxshilash uchun ilgari surilgan rekreatsion turizm g'oyasiga o'xshash ijtimoiy turizm konsepsiyasiga amal qilib kelmoqda, ayniqsa, aholining

daromadi past qismi uchun turizm imkoniyatlari yaratish bilan davlat o'zining farovonlikni ta'minlash funksiyasini kuchaytiradi.

Davlat hokimiyati turizm industriyasi ko'pgina biznes turlari va sektorlari faoliyatini o'z ichiga oluvchi murakkab industriya bo'lganligi bois, umumiy maqsadlar-turizm rivoji va sifatini yaxshilashga erishish uchun mazkur sohaga ta'sir ko'rsatishga urinadi. Ushbu aralashuv bozor muvaffaqiyatsizligining oldini olishga yordam beradi. Lekin, agar davlat turizm sohasini o'ta darajada ko'p o'z tasarrufiga olsa, bozor muvaffaqiyatsizligi davomli bo'ladi, buning sababi, agarda turizm boshqaruvi va nazorati davlat agentliklari tomonidan olib borilib, o'ta markazlashsa, davlatning aralashuvi bilan yuzaga kelgan balansning buzilishi xususiy sektorlar investitsiyasi uchun zararga ishlaydi.

Davlat tomonidan kiritiladigan sarmoya o'ta katta miqdorni tashkil etsa, bunday vaziyatda davlat tomonidan ajratilgan subsidiyalar tufayli turizm noiqtisodiy sohaga aylanib, tashqi bozor kuchlaridan himoyalanih hodisasi sodir bo'ladi. Bunday turizm faoliyati investorlarni jalb etmaydi va oxir-oqibat bozor muvaffaqiyatsizligiga uchraydi. Bunga yaqqol misollardan biri Buyuk Britaniyaning turistik manzillarni moliyalashtirish uchun ajratilgan ming yillik grantlari, pirovardida muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tizimli tahlil, mantiqiylik, analiz va sintez, qiyosiy tahlil singari usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Turizmning mavsumiylik xususiyati ba'zi mamlakatlarda va hududlarda o'ta darajada kuchli bo'lganligi bois, davlatning aralashuvisiz yil davomida kuzatiladigan turizm faoliyatini olib borish imkonsiz bo'lishi mumkin. Turistik manzillar o'z faoliyatini davom ettirish uchun tashrif buyuruvchilar soni yetarli bo'lmagan va daromad miqdori kam bo'lgan holatda davlat subsidiyalari va grantlari raqobatbardosh bozor sharoitida ular uchun yashab qolishning yagona vositasi bo'lib xizmat qiladi. Turizm industriyasining davlat tomonidan boshqarilishmasligining foydali tomonlaridan biri-subsidiyasiz va davlat

aralashuvisiz bozor iqtisodiyoti raqobatbardoshlikni kuchaytiradi, bu esa innovatsiya, yangi g'oyalar va dinamik turizm industriyasini kuchaytiradi.

Ma'lumki, turizm sohasiga davlat hokimiyatining aralashuvi turizmni qo'llab-quvvatlash va ta'siri, yo'nalishi, shakli va usuli borasida xalq manfaatlarini himoyalash vazifasini bajarib, ko'pgina ziddiyatlar va muammoli vaziyatlarga yechim topishga kirishadi. 2008-yilda Ispaniya, Gretsiya va Kiprda qirg'oqchilik va suv tanqisligi tufayli davlat hokimiyati iqtisodiyotning birlamchi bo'g'ini bo'lgan turizm sektorida vujudga kelgan strategik inqirozni bartaraf qilish uchun suv import qilish tashabbusini ilgari surdi. Bunday holatlarda davlat strategik rejalash va inqirozni boshqarish funksiyalarini o'z zimmasiga oladi.

Buyuk Britaniyada o'ta byurokratik xarakterga ega turizm industriyasini boshqarish modeli amaliyotga joriy etilgan. 2011-yilda mahalliy hokimiyat va biznes vakillari o'rtasida 39 ta ko'ngilli hamkorlik boshqarmalari sifatida Mahalliy Iqtisodiy Hamkorlik Tashkilotlari tashkil etildi va sobiq Hududiy Rivojlantirish Agentliklari funksiyalarini bajarishga kirishdi. Mahalliy Iqtisodiy Hamkorlik Tashkilotlarining 7 tasi turizm faoliyatini birlamchi foyda manbasi sifatida tan olishgan, 26 tasi turizm industriyasiga faoliyat shakli sifatida qiziqish bildirishgan, 2 tasi esa mutlaqo turizm jarayonlariga aralashishmaydi.

Buyuk Britaniyaning Milliy Turizm Tashkilotlari:

1. VisitBritain-xalqaro marketing amaliyoti bilan shug'illanadi
2. VisitEngland
3. VisitWales
4. VisitScotland
5. Northern Ireland Tourist Board

2012-yilda Buyuk Britaniyaning Madaniyat, Ommaviy Axborot va Sport bo'limi tomonidan VisitBritain Milliy Turizm tashkiloti uchun 50mln dollar, VisitScotland uchun 38 million dollar mablag' ajratildi.

Xitoy davlatining turizm siyosatiga nazar solsak, davlat hokimiyatining turizm industriyasini o'ta darajada nazorat ostida ushlab turishi sababli ushbu sohada ko'p muammolar ko'zga tashlanadi, turizm industriyasini rivojlantirish uchun Xitoy hukumati turizm sohasiga ta'sir darajasini kamaytirishi lozimligi ta'kidlanadi. Biznes birlashmalari tomonidan boshqariladigan hududiy turistik tashkilotlar turizm industriyasini rivojlantirish uchun ko'proq samarali ekanligi isbotlangan. Polsha va

Slovakiya misolida, Panasiuk va Wszendybyl-Skulska Yevropa Ittifoqida davlat turizm siyosatining ijtimoiy jihatlarini tadqiq etadi va moliyaviy ko‘mak dasturlarini joriy etish bilan Yevropa qadriyatlari va ijtimoiy birligiga asoslangan barqaror rivojlanish tendensiyalarini ilgari suradigan turizm siyosati siyosiy o‘zgarishning bir qismi bo‘ldi. Covid 19 tufayli inqirozga uchragan turizm sektorining asosiy funksiyalarini jonlantirib turish uchun Polsha va Slovakiyada davlat hokimiyati ijtimoiy ko‘mak sifatida ko‘p bolali oilalarga va nogironligi bor shaxslarga tur-vaucherlar taqdim etdi. Rossiya davlatida esa, turizm industriyasida talab va taklif o‘rtasida muvozanat buzilganligini ko‘rishimiz mumkin. Mazkur holatning kelib chiqish sabablari tahlil qilinganda, davlat tomonidan beriladigan ijtimoiy yordam miqdorining kamligi bir qator marketing bilan bog‘liq muammolarni yuzaga chiqarganini ko‘rishimiz mumkin. Yaponiya davlatida esa 2016-yilda xorijiy sayyohlar sonini 2020-yilgacha 40 million kishiga, 2030-yilgacha esa 60 million kishiga yetkazish maqsad qilingan edi. Biroq, koronavirus tufayli, kirish turizmining o‘sish sur‘ati keskin tushib ketdi. Ana shu sharoitda, Yaponiya hukumati bir necha inqirozga qarshi kurashish tashabbuslarini ilgari surdi:

- *Turizm industriyasida digital transformatsiya:* Yaponiya Ichki Munosabatlar va Axborot Vazirligi 2021-2022-yillarda mahalliy hukumatlar tizimida digital transformatsiya uchun 3.88 milliard yen mablag‘ ajratdi. Mazkur mamlakatda turizm sohasida joriy etilgan eng so‘ngi texnologiyalar quyidagilar: Ultra yuqori tezlikka ega beshinchi avloq texnologiyalari (5G), yuqori tezlikdagi aloqalarni ta‘minlovchi Wi-Fi 6, masofaviy boshqaruvni ta‘minlovchi IoT tizimi, Augmented va Virtual Reality, sun‘iy intellekt, va boshqalar.
- *Kirish turizmini rivojlantirish uchun tashqi aloqalarni yanada mustahkamlash:* yapon hukumatining xorijiy vakolatxonalari tomonidan Yaponiya davlatining turizm salohiyatini-tarixi, madaniyati, an‘analari to‘g‘risidagi materiallarni keng tartibda yoyish tashabbuslari kuchaytirildi.
- *Yaponiyaga tashrif buyuruvchi sayyohlar uchun soliqlardan ozod qilish amaliyotini kengaytirish:*

Yaponiyaga tashrif buyuruvchi sayyohlar uchun joriy etilgan soliqdan ozod qilish tizimi ham iste'molchilar, ham biznes vakillarining manfaatlarini inobatga olib har yili davlat hukumati tomonidan muhokama qilinadi. 2016-yil may oyida qilingan ayrim tuzatishlarga ko'ra, soliqdan ozod qilinadigan minimal xarid miqdori 5,000 yen ga tenglashtirildi. Soliqdan ozod qilish tizimi qiymati past tovarlar-kosmetik mahsulotlar, dori vositalari, xalq amaliy san'ati namunalari va milliy hunarmandchilik mahsulotlari uchun ham joriy etildi. Mazkur islohotlar mahalliy xalq va chetdan tashrif buyurgan turistlarni ichki turistik mahsulotlarni iste'mol qilishga rag'batlantiradi.

- *Ko'p tilli yordam dasturlarini kuchaytirish.*

Yaponiyaga tashrif buyuruvchi sayyohlar soni oshishi bilan ko'p tillarda xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash muammosi yuzaga keldi. Airport, bandargoh, jamoat transporti va turistik attraksionlarda stresslardan holi va yanada qulay turistik muhitni yaratish uchun davlat hukumati va mahalliy boshqaruv organlari kompleks ko'p tilli axborotlarni ulashish sistemasini ishga tushirish uchun birgalikda ishlashmoqda.

Qozog'iston Respublikasida davlat hukumati turizm industriyasini to'g'ridan-to'g'ri Turizm qo'mitasi va "Kazakh Tourism" milliy kompaniyasi orqali xalqaro turizm siyosati usullaridan foydalangan holda boshqaradi. "Kazakh Tourism" milliy kompaniyasi 2017-yilda tashkil topgan bo'lib, turistik manzil sifatida mamlakat brendini global miqyosda reklama qilish va 2025-yilgacha Milliy Turizm Rivojlanish Strategiyasini yanada jadallashtirish vazifasini ado etmoqda. Qozog'iston Respublikasida ham turizm industriyasi iqtisodiyotning birlamchi foyda keltiradigan sektorlaridan biri sifatida e'tirof etilgan va davlatning liderlik irodasi davlat sektori va xususiy sektorlar o'rtasida kompleks munosabatni yo'lga qo'yish jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, turizm industriyasining faoliyat shakllarini to'g'ri yo'lga qo'yish va xususiy sektorlar bilan muvozanatlashgan munosabatlarni shakllantirish turizm sohasining ma'lum bir miqdorda davlat

tomonidan boshqarilishini taqazo etadi. Muayyan turistik manzillarning tur mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqish uchun xususiy sektorlar davlatning marketing faoliyatiga suyanadi. Davlat hukumati aholi manfaatlarini hisobga olgan holda, o'rta darajada yoki kam daromadli fuqarolari uchun sayohat imkoniyatlari berilishi uchun xalq manfaatlarini himoya qilish funksiyasini bajaradi. Turizm sohasiga iqtisodiyotning birlamchi bo'g'inlaridan biri sifatida qaraydigan davlatlarda mazkur sohada ko'p tarmoqli turistik loyihalar va dasturlarni amaliyotga joriy etish bilan rivojlantirish tendensiyalari muhokama qilinadi va eng maqbul qaror va usullar tanlab olinadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. OECD(2008) Tourism in OECD Countries 2008: Trends and Policies. Paris: OECD.
2. Jeffries,D(2001) Governments and Tourism.Oxford:Butterworth-Heinemann.
3. Page,J,S.(2019)Tourism Management.6th edition.Routhledge.
4. www.visitbritain.org/great-britain-campaign-0
5. Valente.F.(2015).Leadership and governance in regional tourism. Journal of Destination Marketing& Management. Vol.4.No.2.P.127136
6. Wang.C.(2014).The role of local government and the private sector in China's tourism industry. Tourism Management. Vol.45.P.95-105.
7. Panasuik, A., Wszendybyt-Skulaska.E. (2021).Social Aspects of Tourism Policy in the European Union
8. Donskova. L.,Barannikov. A.,Redkin.A. (2022) State Regulation of Tourism and Tourism Policy: Foreign and Russian Experience
9. Smart Resort Handbook. Published by The Ministry of Economy of Japan.2020
- 10.Lipkova.L.,Madiyarova.A.,Blembayeva.A.(2020).Importance of state regulation of the tourism industry in the Republic of Kazakhstan. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202015904007>
- 11.Revision of Consumption Tax Exemption System” of Japan Shopping Tourism organization.Apr 2020.

12.Салоксиддинов, М. (2021). Тобе уюшиқ компонент о`рнида келган темпораллик. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, 1(78), 149-153.